

## Shavkat Mirziyoyev talaba va o'quvchilarga murojaat qildi

Bugun, 3 aprel kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida koronavirus pandemiyasi keltirib chiqargan inqirozga qarshi kurashish sharoitida tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishi o'tkazildi. (<https://president.uz/uz/lists/view/3481>) Muhokamalarga o'tishdan oldin davlatimiz rahbari yana bir bor xalqimizga murojaat qildi. Prezident o'z murojaatida talaba va o'quvchi-yoshlarga ham to'xtaldi:

- Men bugungi kunda uy sharoitida tahsil olayotgan talaba va o'quvchi yoshlarimizga murojaat qilmoqchiman:

Aziz farzandlarim, uyda vaqtingizni bekor o'tkazmang! Onlayn darslarni qunt bilan o'zlashtiring. Kitob o'qing, bilimingizni oshiring, badantarbiya va jismoniy mashqlarni bir kun ham qoldirmang.